



Odil Yoqubovning "Muzqaymoq" hikoyasining badiiy-g'oyaviy tahliliga doir.

**Burxanova Feruza
Abdurazzoqovna**

*Nizomiy nomidagi O'zMPU dotsenti,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
E-mail: feruzaburxanova86@gmail.com*

**Husanova Yodgora
Sayfulla qiz**

*Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy
pedagogika universiteti Filologiya fakulteti "O'zbek
tili va adabiyoti" yo'nalishi 1-bosqich talabasi.
E-mail: husanovayodgora89@gmail.com.*

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekiston xalq yozuvchisi, "Do'stlik" hamda "El-yurt hurmati" ordenlari sohibi Odil Yoqubovning ijodida muhim o'rin tutgan "Muzqaymoq" hikoyasi to'liq tahlil asosida yoritiladi. Hikoyada ilgari surilgan asosiy g'oya, syujet va konflikt masalasi, shuningdek, qahramonlar xarakterining ochilishida qo'llangan badiiy tasvir vositalari, bola psixologiyasi orqali jamiyatdagi muayyan ijtimoiy munosabatlar yoritilib, yozuvchining realistik uslubi, obrazlar tizimi ilmiy-nazariy jihatdan baholanadi.

Kalit so'zlar: Odil Yoqubov, "Muzqaymoq" hikoyasi, g'oyaviy-badiiy tahlil, obrazlar tizimi, bola psixologiyasi, NKVD.

Аннотация: В данной статье проводится анализ рассказа «Мороженое», занимающего важное место в творчестве народного писателя Узбекистана, кавалера орденов «Дружба» и «Эл-юрт хурмати» Одил Якубова. В статье рассматриваются основная идея произведения, вопросы сюжета и конфликта, а также художественные средства, использованные при раскрытии характеров персонажей. Через призму детской психологии раскрываются определённые социальные отношения в обществе, а реалистический стиль писателя и система образов оцениваются с научно-теоретической точки зрения.

Ключевые слова: Одил Якубов, рассказ "Мороженое", идейно-художественный анализ, система образов, детская психология,

Annotation: This article provides an analysis of the story "Ice Cream", which occupies an important place in the works of Odil Yoqubov, a People's Writer of Uzbekistan and a recipient of the "Friendship" and "El-Yurt Hurmati" orders. The study examines the main idea of the work, issues of plot and conflict, as well as the artistic devices used in the development of the characters. Through the lens of child psychology, certain social relationships in society are explored, while the writer's

realistic style and the system of characters are evaluated from a scientific and theoretical perspective.

Keywords: Odil Yoqubov, "Ice Cream" story, ideological and antistic analysis, system of characters, child psychology, NKVD.

Ma'lumki, muallif hikoyada XX asr xalqimiz o'tmishidagi fojealar davrining o'z hayotidagi bir sahifasini qog'ozga tushiradi. O'z otasi taqdiri misolida qatag'on davrining daxshatlari aks etgan bolalik xotiralarini qalamga oladi. Mehnatkash, halol, sadoqatli otasining o'z xizmatlari uchun tuhmatga uchrab, qatag'on qilingan voqealarini tasvirlaydi. Bu hikoya Birinchi Prezidentimizning " Yuksak ma'naviyat- yengilmas kuch" kitobida ta'kidangan quyidagi da'vatning qanchalar muhim ekanligini yana bir bor tasdiqlaydi: " Xalqimiz va millatimizning yaqin o'tmishidagi yopiq sahifalarni to'la ochib berish, shu tarixdan saboq chiqarib, bugungi va kelajak hayotimizga ongli qarashni shakllantirish, begunoh qurbon bo'lgan insonlar xotirasini abadiylashtirish biz uchun ham qarz, ham farz".

Hikoyaning ekspozitsiyasi "O'sha oilamiz boshiga og'ir kulfat tushgan kuni, men, o'n yashar bola edim, nimadandur ko'nglim g'ash, uyimiz ro'parasidagi paxsa devorga chiqib go'yo otga minib o'tirardim". Bu jumalardan ko'rishimiz mumkinki, bolaning ko'ngli g'ash, lekin o'zini xursand qilgan holda xuddiki u otda o'tirar edi. Ushbu ko'z ilg'amas, kichik tasvirdan ko'rinib turibdiki, paxsa devorni ot deb tasavvur qilgan va negadir ko'ngli g'ash bola edi. U hali ma'lum bir soatlardan so'ng hayotida eslab afsuslanadigan voqealar yuz berishidan bexabar, bolalarcha sodda, o'ychan, endigina boshlang'ich sinflarni tamomlayotgan bola edi. Shu bilan birga, ularning uylariga to'satdan, dadasining SAKU dan kelgan mehmonlari unga bir qancha quvonch hadya etgan, onasining esa dadasini chaqirib, mehmonlarning kelganidan boxabar qilish maqsadida o'g'liga aytgan buyruqlari unga o'zgacha ilhom bag'ishlar va u oyog'ini qo'liga olib dadasining ish joyi tomon yugurgilar edi. Bolakay otasiga xabar berish va ish joyiga yetib borish oraliq'ida otasining jahldor, diydasi qattiqroq, kamgap inson ekanligini o'ylar va yetib borganida dadasi to'satdan o'g'liga muzqaymoq olib bermoqchi bo'lganini aytganlarida u juda ham hayron qoladi. O'sha birgina muzqaymoq ramzi butun hikoya davomida yetakchi unsur hisoblanadi. Chunki dadasi umrida birinchi bor o'g'liga muzqaymoq olib bermoqchi bo'lganligi, aksiga olib do'kon ham yopiq ekanligi hikoyaning so'ngida dadasi farzandlarining diydoriga to'ya olmasdan qamoqqa mahkum qilinganligi bilan yakun topadi.

Hali bola chog'larida otasining qo'rquv va xavotirda yashaganini guvohi bo'lgan bu bolakayning uylariga ikkita harbiylarning bostirib kirishi, opasi va onasining dod-u faryod chekishlariga sabab bo'ldi. Ular bir mudhish maqsad bilan kelganini aql bilan bo'lmasa-da, yurak bilan his etardi. Shu beparvoligi bilan kapitan ocha olmagan shkaf tortmasini ochib berib, kapitandan maqto'v eshitgan obraz ham bola edi-da. Uning otasi sho'ro idoralarida katta-katta lavozimlarda ishlagan, buvalari Yoqubshayx so'filik qilgani uchun o'g'li urilib tuman moliya bo'limiga kichik bir lavozimga tushirib qo'yilgan edi. Qatag'on siyosati avjiga chiqqan paytlar, hamma bir-biridan gumonsiragan davrlarda uylariga kelgan ikki komisar bolakayning otasi- Samandarni hibsga oladi. Yozuvchi ushbu manzarani tasvirlar ekan, bir tomonda daxshatdan haykalday qotib qolgan otasi, dod-faryod solib yig'layotgan opasi, qo'rqqanidan bir

burchakda bir-birining pinjiga yashiringan ukalari holatini ko'rsatib, qatag'on davrining naqadar qo'rqinchli ekanligini o'quvchi tassavurida gavdalantiradi.

Siyosiy targ'ibot. Bolalar yolg'on aqida va g'oyalar ta'sirida tarbiya topardilar. Har kuni o'tkaziladigan mitinglar, karnay-surnay, nog'oralarning sadosi, o'zining aldanganidan bexabar bo'lgan bola, tengdoshlarining saf tortib yurishlarini ko'rib havas qilar edi. Bola kapitanga tortmani ochib berganida uni Pavlik Morozovga o'xshatganligi, Pushkin yubileyi munosabati bilan chiqarilgan daftardan "Doloy SSSR!" ya'ni, "Yo'qolsin SSSR!" degan yozuvni topganiga quvonsa ham, maktabidagi hurmat taxtasidan o'z nomini topa olmasdi. Onasi esa o'g'lining bu "qahramonlik"laridan zarracha ham xursand bo'lmasdi. U onasining va opasining kechalari uhlamasdan qamoqdagi otasi uchun talqon va yana allanimalar tayyorlab chiqishining sababini ham bilmas edi. Otasining o'g'liga aytgan ohirgi jumalari esa uni juda ham oz fursat ichida ulg'aytirgandek bo'ladi.

Aytishimiz mumkinki, qachonlardir otaning o'g'liga muzqaymoq olib bera olmaganliklari va undan o'ksingan qiyofasi bir umr xotirasiga muhrlangan yozuvchining iztiroblari uning hayoti davomida bu voqeaning yaxshiroq yakun topishi mumkin ekanligini qayta va qayta tasavvur qilgandir.....

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1) Yoqubov O, "Muzqaymoq" hikoyasi. Toshkent. " Sharq" nashriyoti 1994.
- 2) Adabiyot "Qulay qo'llanma", " Regbooks" nashriyoti, Toshkent 2021- 83b
- 3) Normatov U, Ijod sehri "Sharq" nashriyoti-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi, Toshkent 2007-105b
- 4) Karimov I, "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch", "Ma'naviyat" nashriyoti, Toshkent 2008.
- 5) <https://arxiv.uz/uz/documents/slaydlar/manaviyat-asoslari/prezident-i-a-karimovning-yuksak-ma-naviyat-yengilmas-kuch-asarida-ma-naviy-axloqiy-tarbiya-masalalari>